

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№10

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025

oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 818 sahifa.
2025-yil, oktyabr,

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadirxodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA‘LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA‘RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA‘LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA‘LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA‘MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА.....	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI.....	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ.....	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES.....	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOYILLARI.....	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI.....	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILYIY MEXANIZMLARI.....	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA.....	203
Abduraxmonov Akmal Nurmatamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Mdraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyevna	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abdugarimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнора Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI.....	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLIISH USULI	343
Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	347
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	
IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS.....	354
Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi	
KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA	362
Ilyasova Barno Axmadovna	
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	371
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	378
Raximov Eshmurod Normuradovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	385
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY KONSEPTUAL MEKANIZMLARI.....	392
Jalolov Abbasxon Ravshanxon o'g'li	
TEPKI UZELI KONSTRUKTIV XOSSALARI TAHLILI	398
Bozorova Farida Maxmudjonovna	
НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЪЕДИНЕНИЯ АКЦИЗНОГО НАЛОГА НА НЕФТЕПРОДУКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	405
Пулатов Дилшод Хақбердиевич, Маматкулов Салимжон Рахмонкулович, Хужамурадов Аброрбек Рўзимурат ўғли, Воронин Сергей Александрович, Абдиев Мансур Мусурмонович	
OLIY TA'LIMGA INVESTITSIYA SIYOSATI: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLAR	410
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE SERVICE NETWORK.....	416
Bahriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
YANGI O'ZBEKISTON INVESTITSION MUHIT VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	421
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
МНОГОМЕРНАЯ БЕДНОСТЬ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ: ОЦЕНКА ЧЕРЕЗ РАМКУ МРІ	426
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
ОЦЕНКА И ОПТИМИЗАЦИЯ ВЛИЯНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБМЕННОГО КУРСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	430
Норбаева Мухлиса Акрам кизи	



RAQAMLI TO'LOVLAR ASOSLARI VA XAVFSIZLIGI	440
<i>Yaqubov Azizbek G'anibekovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	444
<i>Xomidov Xojjakbar Adxamovich</i>	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	449
<i>Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna</i>	
O'ZBEKISTONDA STARTAP EKOTIZIMINING SHAKLLANISHI VA BARQAROR RIVOJLANISHI YO'LLARI.....	454
<i>Suleymanova Shoira Alavxanovna</i>	
MILLIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING O'RNI	459
<i>Alimova Dilfuzaxon Rustam qizi</i>	
MEHNAT BOZORINI OPTIMALLASHTIRISHNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	464
<i>Botirova Sarvinoz Bobir qizi</i>	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TASHKIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	469
<i>Qurboniyazov Shaxzodbek Karimovich</i>	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH USULLARINING MANBALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	474
<i>Boboqulov Akmal Muborakbekovich</i>	
RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING MOHIYATI VA TURLARI.....	482
<i>Zufarov Akmal Gulamiddinovich</i>	
FISKAL BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	491
<i>Sulaymonov Farrux Shuxratovich</i>	
ИНДЕКС ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ МОНИТОРИНГА УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ.....	496
<i>Хазраткулова Лола Нармуминовна</i>	
BANK MAJBURIYATLARI VA AKTIVLARINING VAQTINCHALIK NOMUTANOSIBLIK LARI RISKINI KAMAYTIRISH	502
<i>Ibrohimov D.M.</i>	
O'ZBEKISTON RAQAMLI PLATFORMALARI FAOLIYATIDA RAQOBAT SIYOSATINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	507
<i>Saparov Islom O'Imasovich</i>	
RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA MARKETING YONDASHUVLARINING QISHLOQ XO'JALIGIGA TATBIQI.....	514
<i>Abdikarimova Zilola Baxramovna</i>	
TIJORAT BANKLARI KAPITALI TARKIBIDA DAROMAD MANBALARINING ULUSHI VA KAPITALLASHUV JARAYONIDAGI O'RNI	520
<i>Tursunov Mustafo Mirzayevich</i>	
AHOLINI IJTIMOY HIMOYA QILISH TIZIMIDA INSTITUSIONAL HAMKORLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI TAHLILI	524
<i>Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna</i>	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI	528
<i>Bobojonova Sevara Baxrombek qizi</i>	
MINTAQA SANOATI RAQAMLI XIZMATLAR BOZORIDA TIJORATLASHTIRISHNI "SMART" MODEL I	533
<i>Norov Murodjon Maxmudovich</i>	



TOMORQADAN SAMARALI FOYDALANISH- KAMBAG'ALLIK MUAMMOSINI YUMSHATISHNING MUHIM OMILI	539
Xamidjon Shaxobov	
SUG'URTA KORXONALARIDA REZERVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	544
Najimova Nigora	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHDA XITOY BOZORINING O'RNINI	549
Mardanov Aziz Yusupovich	
THE IMPORTANCE OF GREEN ENERGY IN THE ECONOMY OF FERGANA REGION: CURRENT TRENDS AND PROBLEMS	555
Khayrullaev Zoidjon	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNING UNDIRILISHI BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI	559
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	563
Muyassarzoda Fayziyeva	
MOLIYAVIY MEXANIZM SIFATIDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BELGILASHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI	570
Abdullayev Erkinjon A'zamovich	
MAMLAKAT YAIM QO'SHILGAN QIYMAT HAJMINI STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL USULLARI ASOSIDA PROGNOZLASH	578
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
XALQARO TURIZM XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	585
Eshtaev Alisher Abdug'aniyevich, Ivatov Irisbeg	
TASHKILOTDA PR (PUBLIC RELATIONS) XIZMATINING IQTISODIY ROLI VA SAMARADORLIGI	590
Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna	
РОЛЬ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	600
Бекбаева Феруза Бахтиеровна	
BARQAROR MOLIYAVIY RENTABELLIK BANKLARNING DAROMADLILIGINI TA'MINLASH OMILI SIFATIDA.....	606
Umarov Davron Shavkatovich	
REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR.....	612
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ОБУЧЕНИЕМ (LMS) В ОНЛАЙН ОБРАЗОВАНИИ И ЕЕ РОЛЬ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: АНАЛИЗ И СРАВНЕНИЕ	618
Атабоева Шахризода Равшановна, Бекчанов Бекчан Юлдашевич	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА: ПЕРСПЕКТИВЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	623
Киличева Ф.Б.	
DAVLAT TIBBIYOT MUASSASALARIDA DEBITORLAR VA KREDITORLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	628
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
NARX BELGILASH-IQTISODIY MANFAATDORLIKNING ASOSIY OMILI VA NARXNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI	635
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
SUTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDAGI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI TAHLIL QILISH	639
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	



O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA TARIF STAVKALARINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI FISKAL BARQARORLIKNI KUCHAYTIRISH (OZIQ-OVQAT IMPORTI MISOLIDA).....	644
Rizayev Mirmahmud Xotamjanovich	
IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINING XORIJ TAJRIBASI.....	652
Akrom Mardiyev	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGI TAHLILI	659
Ulashbayev Shohruh Abdivaxobovich	
CHARACTERISTICS OF APPLYING NEW HETEROCOMPOSITE POLYMER MATERIALS IN ENGINEERING ACTIVITIES	665
Umida Ziyamukhamedova, Mirjalol Abdulakimov	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ «МАХАЛЛАБАЙ»: ДЕЦЕНТРАЛИЗАЦИЯ И ТЕОРИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ.....	672
Қосимжонов Нозимжон Қозимжон ўғли	
EKOLOGIK AUDITNI TASHKIL ETISHDA RISKLARNI JORIY ETISH TARTIBI	676
Abdullayev Xurshidjon Nazrullo o'g'li	
CORPORATE CULTURE AND ITS ROLE IN TALENT MANAGEMENT	683
Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliyev	
SIRDARYO VILOYATI SHAROITIDA BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQARISH IMKONIYATLARI.....	687
Xazratkulov Niyoz Namazbayevich	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ХОЗЯЙСТВЕННОГО МЕХАНИЗМА В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ	692
Воронин Сергей Александрович, Азимова Феруза Маликовна	
ENERGETIKA LOYIHALARINI RAQAMLASHTIRISHDA TO'SIQLAR VA IMKONIYATLAR	700
Tilakov Ismoiljon Usmonovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI.....	706
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI BOZORLARNI MONOPOLIYAGA QARSHI TARTIBGA SOLISH MEKANIZMLARI VA TAKOMLLASHTIRISH TAKLIFLARI.....	710
Mingboev Asqar Qandaharovich	
JAHON SEMENT SANOATIDAGI TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	717
Abdujabbarov Alisher Abdullayevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	722
Mufitillayeva Safiya Qodir qizi	
KORXONALAR FAOLIYATINI BAHOLASHDA STATISTIK AXBOROT TIZIMINING O'RNI	728
Musurmonova Mahbuba Omonovna	
INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ULARNING AGRAR SOHAGA TA'SIRI.....	732
Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li	
DIRECTIONS FOR EFFECTIVE ORGANIZATION OF STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF COSTS.....	736
Pardaeva Shakhnoza Abdinabiyevna	
БОРЬБА С ТЕНЕВОЙ ЭКОНОМИКОЙ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	740
Арзиев Шерзод	
REKREATSION TURIZM OBYEKTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGI: YALTA VA KISLOVODSK SANATORİYALARI MISOLIDA.....	746
Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich	



KORXONA SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA STRATEGIK REJALASHTIRISH MEZONLARI VA OMILLARINING O'RNI	752
Ubaydullayev Lutfulla Xabibullayevich	
ANALYSIS OF INTERACTIVE PLATFORMS THAT DEVELOP MOTIVATION	757
Maksuda Mukhammadovna Jurayeva, Zarnigor To'liqinovna Sattorova	
O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIK VA KIYIM SANOATINING MARKETING TAHLILI	761
Tuxtayeva Oydiyoy Normamatovna	
АНАЛИЗ РЕЙТИНГОВ СТРАН ПО ПОКАЗАТЕЛЯМ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	768
Хожиева Назокат Давронбековна	
PILLAGA DASTLABKI ISHLOV BERISH VA SAQLASH TEXNOLOGIK JARAYONLARINING XOM IPAK SIFATIGA TA'SIRI	773
Qodirov Ziyodulla Abdumuxtarovich, Xakimov Mirolimjon Murodiljonovich	
BUDJETLASHTIRISHDA SAMARADORLIK MEZONLARINI ANIQLASH	778
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT SIYOSATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ORQALI ISHLAB CHIQRISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	783
Abduxomidov Ikromjon Maxamadin o'g'li	
YO'LLARDAGI MUZLAMALARNI ERITISHDA QO'LLANILADIGAN VOSITALARNING ZARARI VA UNI KAMAYTIRISH BO'YICHA TAKLIFLAR	790
Erkabayev Furkat Ilyasovich, Sattorov Farrux Quchqar o'g'li, Aminov Hamza Husanovich	
DAVLAT AUDITI TIZIMINING YANGI RIVOJLANISH BOSQICHI: KUCHAYTIRILGAN NAZORAT VA HISOBDO'RLIK, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR	797
Himmatov Abdisamat Xalilovich	
INVESTITSIYA KO'CHMAS MULK HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR	803
Maxmudov Jamshed Ashrafovich	
TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARGA VALYUTA OPERATSIYALARINI KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	806
Umarova Lola Erkinovna	
"DIREKT-KOSTING" TIZIMI: MAZMUN, MAQSAD VA AMALIYOTDA QO'LLANILISHI.....	812
Djumanov Saitmurod Alimbekovich	

“DIREKT-KOSTING” TIZIMI: MAZMUN, MAQSAD VA AMALIYOTDA QO‘LLANILISHI

Djumanov Saitmurod Alimbekovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Moliyaviy hisob va hisobot” kafedrası

PhD., dosenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonada mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish jarayoni yoritilgan. Kalkulyatsiya — bu mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonida sarflangan xarajatlarni hisobga olib, mahsulotning to‘liq tannarxini aniqlash usulidir. Tadqiqotda mahsulot ishlab chiqarish jarayonidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita xarajatlar turlari tahlil qilingan hamda ularni kalkulyatsiya moddalari bo‘yicha toifalash asosida hisob-kitob qilish usullari keltirilgan. Shuningdek, kalkulyatsiya natijalari moliyaviy hisobotlarda aks ettirilishining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar, bilvosita xarajatlar, xarajat, chiqim, sarflar, mahsulot tannarxi, kalkulyatsiya, moliyaviy hisobot.

Abstract. This article discusses the process of cost calculation (calculation of production cost) in an enterprise. Cost calculation is a method of determining the full production cost of goods or services by accounting for all direct and indirect expenses incurred during the production process. The study analyzes various types of direct and indirect costs and presents methods for calculating them based on cost classification by calculation items. Additionally, the significance of reflecting calculation results in financial statements is highlighted.

Keywords: direct costs, indirect costs, expenses, outlays, production cost, cost calculation, financial reporting.

Аннотация. В данной статье рассмотрен процесс калькуляции себестоимости продукции на предприятии. Калькуляция — это метод определения полной себестоимости продукции или оказываемых услуг с учетом всех понесённых прямых и косвенных затрат в процессе производства. В исследовании проанализированы виды прямых и косвенных расходов, а также приведены методы их расчёта на основе классификации по статьям калькуляции. Кроме того, показано значение отражения результатов калькуляции в финансовой отчётности.

Ключевые слова: прямые затраты, косвенные затраты, расходы, издержки, себестоимость продукции, калькуляция, финансовая отчётность.

KIRISH

Har qanday biznes faoliyatida mahsulot tannarxini aniqlash va uni to‘g‘ri boshqarish muhim ahamiyatga ega. Tannarx — mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish uchun sarflangan barcha xarajatlar yig‘indisi bo‘lib, u korxonaning iqtisodiy samaradorligi hamda rentabelligini belgilaydi. Hozirgi kunda raqobat kuchaygan bozor sharoitida tannarxni to‘g‘ri va samarali hisoblash korxonalar muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Tannarxni hisoblashning bir nechta usullari mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos afzallik va qo‘llash shartlariga ega. Shulardan “direkt-kosting” tizimi mahsulot tannarxini hisoblashda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlarni alohida ajratadi va bilvosita xarajatlarni mahsulot tannarxidan chiqarib, ularni davr xarajatlari sifatida e‘tiborga oladi. Ushbu yondashuv biznesda tezkor va asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilish, xarajatlarni tizimli nazorat qilish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Amaliyotda ko‘plab korxonalar xarajatlarni aniq differensiallash va sarflarni samarali boshqarish maqsadida “direkt-kosting” tizimidan foydalanmoqda. Mazkur usul mahsulotning boshqaruv nuqtayi nazaridan real (qaror qabul qilishga zarur) tannarxini aniqlashga ko‘maklashadi va unga tayangan iqtisodiy tahlillarni yanada ishonchli qiladi. Shuningdek, “direkt-kosting” moliyaviy hisobotlarda to‘liq tannarx talabi qo‘yilmaydigan holatlarda — xususan, qisqa muddatli rejalashtirish va ichki boshqaruv hisobotlarida — keng qo‘llaniladi.

Ushbu maqolada “direkt-kosting” tizimining mazmuni, maqsadlari, asosiy vazifalari, afzalliklari va cheklovlari, shuningdek amaliy qo‘llash mexanizmlari batafsil yoritiladi. Usulning zamonaviy biznes faoliyatidagi o‘rni va ahamiyati keng tahlil qilinib, boshqaruv qarorlarining aniqligini oshirish hamda resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlashdagi roli ilmiy asosda ko‘rsatib beriladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning oladigan foydasi nafaqat tayyor mahsulotlarni yuqori narxlarda sotishga, balki ularni ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonidagi xarajatlarni kamaytirishga ham bevosita bog'liqdir. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va iqtisodiy natijalarni yaxshilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston buxgalteriya hisobi amaliyotida "direkt-kosting" atamasi nisbatan yaqinda kirib kelgan bo'lsa-da, qisqa vaqt ichida keng qo'llaniladigan zamonaviy tizimlardan biriga aylandi.

Nemis iqtisodchisi D. Berner o'z tadqiqotlarida shartli o'zgaruvchan xarajatlar hisobi usuli haqida shunday deydi: "Direkt-kosting tizimi — bu korxonaning jami xarajatlarini vaqt birligida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi bilan bevosita bog'liq bo'lgan o'zgaruvchan xarajatlarga asoslanuvchi tannarx hisobi tizimidir."

Mazkur yondashuvga ko'ra, xarajatlarning faqat bevosita va o'zgaruvchan turlari mahsulot tannarxiga kiritiladi. Bunda hisobot davrida sotilgan mahsulotlarga taalluqli xarajatlarning yakuniy yillik balansini tuzish, shuningdek yarim tayyor va tayyor mahsulotlar zaxiralarini baholash zarur hisoblanadi.

Yuqoridagi tavsifdan ko'rinib turibdiki, "direkt-kosting" tizimining asosiy maqsadi — korxonalar xarajatlarini ishlab chiqarish hajmidagi o'zgarishlarga bog'liq holda doimiy va o'zgaruvchan turlarga ajratishdir.

Umumiy iqtisodiy ma'noda, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi tushunchalari xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Jumladan, A. Charlz Xorngren (Charles T. Horngren) — buxgalteriya va boshqaruv hisobi sohasidagi dunyoga mashhur olim — "direkt-kosting" tizimini "marjinal tannarx hisoblash" (Marginal Costing) deb ataydi. Xorngren ta'limotlariga ko'ra, ushbu usul mahsulot tannarxini to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar asosida hisoblaydi va bilvosita xarajatlarni alohida tahlil qiladi. U "direkt-kosting" tizimining qisqa muddatli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlaydi.

R. S. Kaplan o'z ilmiy ishlarida "direkt-kosting" tizimini xarajatlarni boshqarish va mahsulot samaradorligini oshirish uchun muhim vosita sifatida baholaydi. Unga ko'ra, bu usul korporativ xarajatlarni aniq aniqlash, ularni tahlil qilish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

C. Charlz Dorn (Charles Dorn) esa "direkt-kosting" tizimini ishlab chiqarish va ichki boshqaruvda xarajatlarni nazorat qilish mexanizmi sifatida ko'rib chiqadi. U bu tizim yordamida qisqa muddatli iqtisodiy qarorlarni tez va aniq qabul qilish mumkinligini qayd etadi.

T. Kovalchuk o'z dissertatsiyasida "xarajatlar", "chiqimlar", "sarflar" va "tannarx" tushunchalariga aniqlik kiritib, ularning o'zaro farqlarini ilmiy asoslab bergan. U me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy manbalarni tahlil qilgan holda, "xarajatlar" tushunchasi "chiqimlar", "sarflar" va "tannarx" atamalariga nisbatan kengroq mazmunga ega ekanini asoslaydi. Olimning fikricha, har qanday xarajat ishlab chiqarish faoliyatini davom ettirish va uning istiqboldagi rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

N. Abdusalomova esa "tannarx hisobi – rivojlanayotgan mamlakatlarda buxgalteriya hisobining yangi tendensiyasi" sifatida baholaydi.

O'zbekiston va qo'shni mamlakatlar iqtisodiy adabiyotlarida "direkt-kosting" tizimiga bag'ishlangan tadqiqotlar hozircha ko'p emas. Biroq ayrim mahalliy olimlar bu yo'nalishda muhim ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Jumladan, B. Islomov o'z ilmiy maqolalarida "direkt-kosting" tizimining zamonaviy ishlab chiqarish sharoitlaridagi ahamiyati va uni milliy biznes amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlarini tahlil qilgan.

Xorijiy adabiyotlarda "direkt-kosting" tizimi ko'pincha marjinal tannarx konsepsiyasi sifatida talqin qilinadi va uning texnik jihatlari hamda boshqaruv qarorlarida qo'llanish mexanizmlari chuqur o'rganiladi. Mahalliy tadqiqotlarda esa bu tizimning milliy iqtisodiyot sharoitlariga moslashtirilishi va ishlab chiqarish jarayonlarida amaliy qo'llanishi yo'nalishida izlanishlar bosqichma-bosqich kengayib bormoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda "Direkt-kosting" tizimining mazmuni, maqsadi va amaliy qo'llanish mexanizmlari ilmiy tahlil usullari asosida o'rganildi. Maqolada taqqoslash, iqtisodiy tahlil va mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan. Xususan, xorijiy olimlar — C. Horngren, R. Kaplan va C. Dornlarning nazariy qarashlari mahalliy iqtisodiy sharoit bilan solishtirilib, tizimning O'zbekiston korxonalarida amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlari baholandi. Tadqiqot davomida me'yoriy-huquqiy hujjatlar, buxgalteriya hisobi standartlari va mavjud ilmiy manbalar asosida "direkt-kosting" tizimining afzalliklari, samaradorlik ko'rsatkichlari hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi roli aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Direkt-kosting" hisob tizimi bugungi kunda AQSh va barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilmoqda. Germaniya va Avstraliyada mazkur usul "qisman xarajatlar hisobi" deb ataladi. Buyuk Britaniyada u "marjinal xarajatlar hisobi", Fransiyada esa "marjinal buxgalteriya" yoki "marjinal hisob" nomlari bilan yuritiladi.


O'zbekistonda bu tizimga yaqin atamalar sifatida "cheklangan, to'liq bo'lmagan" yoki "qisqartirilgan tannarx hisobi" iboralari qo'llanilib kelmoqda.

Ilmiy jihatdan qaraganda, ushbu iqtisodiy atamani "buxgalteriya hisobining marjinal usuli" deb nomlash o'rinli hisoblanadi. Bunday yondashuvning sababi shundaki, "direkt-kosting" tizimida asosiy ko'rsatkich sifatida marjinal daromad (ya'ni, tushum bilan o'zgaruvchan xarajatlar o'rtasidagi farq) qabul qilinadi. Ushbu ko'rsatkich yordamida ishlab chiqarish rentabelligi darajasi aniqlanadi, mahsulotni zarar keltirmasdan sotish bahosi belgilanadi, korxonaning assortiment siyosati shakllantiriladi hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan qarorlar ishlab chiqiladi.

Marjinal daromad usulidan hozirgi kunda G'arb mamlakatlarida ishlab chiqarishni ekstensiv (kengaytirish) rivojlantirish modeli o'rniga yangi, intensiv rivojlanish modeli sifatida foydalanilmoqda. Bu model, o'z navbatida, xarajatlarni bevosita va bilvosita, asosiy va qo'shimcha, doimiy va o'zgaruvchan toifalarga aniq ajratishni hamda shu asosda boshqaruvning strategik vazifalarini samarali hal etishni talab etadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, "direkt-kosting" tizimining shakllanishi dastlab sof buxgalteriya hisobi amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan. O'sha davrda hisob xodimlari barcha xarajatlar ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi va hisobot davrining iqtisodiy natijalari bilan bevosita bog'liq ekanligini aniqlaganlar. Shu bois, xarajatlarni mahsulot sotilgan hisobot davriga tegishli ravishda taqsimlash zarur deb topilgan.

"Direkt-kosting" tizimida xarajatlarni kalkulyatsiya qilish o'zgaruvchan xarajatlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu tizimda mahsulot tannarxining shakllanishi o'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha aniqlanadi, bu esa ishlab chiqarish samaradorligini tahlil qilish, xarajatlarni optimallashtirish va boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish uchun muhim metodologik asos yaratadi (1-chizma).



1-chizma. "Direkt-kosting" tizimida o'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha maxsulot tannaxi kalkulyatsiyasi

Ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona va to'liq darajada foydalanish xarajatlarni kalkulyatsiya qilish jarayonida muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayonga barcha o'zgaruvchan xarajatlar hamda umumishlab chiqarish xarajatlarning ma'lum bir qismi kiradi. Bularning barchasi ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsientiga muvofiq ravishda hisobga olinadi.

Agar bu yondashuv to'g'ri qo'llansa, tabiiyki, tannarx tarkibiga vaqt omiliga bog'liq bevosita xarajatlarni kiritish mumkin bo'ladi. Shunga qaramay, hisobot davri balansidagi tugallanmagan ishlab chiqarish qiymati bilan tayyor mahsulotni sotish davridagi qiymat o'rtasidagi farq ayrim nazariy bahslarni yuzaga keltiradi. Biroq, ushbu tafovutni to'g'ri baholash orqali "direkt-kosting" tizimi amaliyotda yanada aniqroq natijalar berishi mumkin.

"Direkt-kosting" (bevosita xarajatlar usuli) — mahsulot tannarxini hisoblashda faqat mahsulotga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan xarajatlarni (xom ashyo, mehnat haqi, ishlab chiqarishdagi energiya sarfi va boshqalar) inobatga oladigan hisoblash usulidir. Ushbu tizimda g'ayribevosita xarajatlar — ya'ni ma'muriy, marketing va boshqa umumiy xarajatlar — tannarxga kiritilmaydi, balki ular alohida tahlil qilinadi.

"Direkt-kosting" tizimi mahsulot tannarxini tez va aniq aniqlash imkonini beradi, ayniqsa, qisqa muddatli faoliyat tahlilida yuqori samaradorlik ko'rsatadi. Ushbu usul asosida olingan ma'lumotlar mahsulotlar portfelini



optimallashtirish, narx siyosatini shakllantirish va operatsion qarorlarni qabul qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Korxonada miqyosida to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita xarajatlarni aniq ajratish xarajatlarni nazorat qilishni osonlashtiradi hamda ularni kamaytirish imkonini yaratadi. Shuningdek, bilvosita xarajatlarning alohida ko'rib chiqilishi doimiy xarajatlarni qoplash va foyda darajasini oshirishga qaratilgan strategik chora-tadbirlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Hozirgi kunda raqamli transformatsiya va avtomatlashtirish jarayonlari ishlab chiqarish hamda boshqaruv hisobotlarini yangilashga olib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, "direkt-kosting" tizimining joriy etilishi, ayniqsa, qisqa muddatli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizim mahsulot tannarxini aniqlashda to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarni hisoblash, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish hamda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash imkonini beradi.

O'zbekistonda "direkt-kosting" tizimini tatbiq etishda mahalliy iqtisodiy sharoitlar, ishlab chiqarish strukturasi va milliy qonunchilik talablari inobatga olinishi lozim. Mahsulot tannarxini aniqlash jarayonida milliy buxgalteriya standartlariga moslashtirilgan hisoblash usullarini joriy etish, xarajatlarni aniq ajratish hamda tahlil qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy qarorlarning aniqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

"Direkt-kosting" tizimi boshqaruv hisobotlarida, ayniqsa, qisqa muddatli rejalashtirish va xarajatlarni nazorat qilish jarayonlarida keng qo'llaniladi. Mahsulotning marjinal tannarxi (contribution margin) hamda qoplash nuqtasi (break-even point) ni hisoblash ishlab chiqarish va savdo jarayonlarini samarali boshqarish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu tizim mahsulotlar portfelini tahlil qilish, resurslarni taqsimlash va strategik boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Har qanday iqtisodiy faoliyatda mahsulot tannarxini to'g'ri hisoblash, xarajatlarni samarali boshqarish va asosli qarorlar qabul qilish biznes muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, "Direkt-kosting" tizimi — zamonaviy boshqaruv hisobotlarida keng qo'llanilayotgan, amaliy samaradorligi bilan ajralib turadigan ilg'or hisoblash usuli sifatida e'tirof etiladi.

"Direkt-kosting" tizimining asosiy xususiyati shundaki, u mahsulot tannarxiga faqat to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarni kiritadi, o'zgaruvchan xarajatlar esa alohida tahlil qilinadi. Bunday yondashuv mahsulot, xizmat yoki loyiha bo'yicha marjinal foydani aniqlash imkonini beradi. Natijada, korxonada rahbarlari boshqaruv qarorlarini tezkor, aniq va iqtisodiy jihatdan asoslangan tarzda qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Hozirgi raqobat kuchayib borayotgan davrda ishlab chiqarish subyektlari, xizmat ko'rsatish tashkilotlari va kichik tadbirkorlik subyektlari "Direkt-kosting" tizimidan quyidagi yo'nalishlarda samarali foydalanmoqda:

- mahsulot yoki xizmat turlari bo'yicha foydalilikni tahlil qilish;
- xarajatlarni qisqartirish va optimallashtirish yo'llarini aniqlash;
- rentabelligi past mahsulotlardan voz kechish hamda resurslarni oqilona taqsimlash;
- savdo strategiyasi, narx siyosati va investitsion loyihalarni tahlil qilishda asoslangan ma'lumotlardan foydalanish.

Bunday yondashuvning yana bir muhim afzalligi — hisobotlarning soddaligi va tushunarligidir. Bu esa rahbarlar va boshqaruvchilar uchun moliyaviy ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish hamda natijalarga asoslangan strategik qarorlarni shakllantirishda katta qulaylik yaratadi.

Shu bilan birga, "Direkt-kosting" tizimini joriy etishda uning chegaralarini ham inobatga olish zarur. Jumladan, ushbu tizim moliyaviy yoki soliq hisobotlarini yuritishda to'liq mos kelmasligi mumkin. Shu sababli, u asosan ichki boshqaruv hisobotlarida keng qo'llaniladi, to'liq moliyaviy hisobotlar esa "absorbshen-kosting" (Absorption Costing) tamoyillari asosida tayyorlanadi.

O'zbekiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda "Direkt-kosting" tizimi hali to'liq joriy etilmagan bo'lsa-da, tadbirkorlik va sanoat sohalarida raqamli texnologiyalar hamda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari asosida uning ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda. Ilmiy tadqiqotlar va mahalliy amaliyotlar ushbu usulni milliy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish zarurligini tasdiqlamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, yangi tahriri. — 2016-yil 13-aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom.
3. Horngren C. T., Sundem G. L., Stratton W. O. Introduction to Management Accounting. — Prentice Hall, 2002.
4. Kaplan R. S., Atkinson A. A. Advanced Management Accounting. — Prentice Hall, 1998.
5. Kovalchuk M. T. Uchet zatrat na proizvodstvo i kalkulirovanie sebestoimosti produktsii na predpriyatiyakh neftegazodobyvayushchey promyshlennosti. — Retrieved from: <https://www.dissercat.com/content/uchet-zatrat-na-proizvodstvo-i-kalkulirovaniyesebestoimosti-produktsii-na-predpriyatiyakh-ne>.



6. Abdusalomova N. (2017). Cost Accounting and Financial Health: Analysis of Cost Reduction Policy Effect in Selected Enterprises of Metallurgy Industry in Uzbekistan. International Journal of Management Science and Business.
7. Islomov B. (2020). Ishlab chiqarish tannarxini hisoblashda Direct Costing usulining ahamiyati. Iqtisodiy tahlil va boshqaruv jurnali.
8. www.lex.uz

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100